



## THE IMPACT OF QUARANTINE ON THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Alxieva Sabrina Sheronovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> 2nd year student of Samarkand State Institute of Foreign Languages

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4763303>

### ARTICLE INFO

Received: 1<sup>st</sup> May 2021

Accepted: 5<sup>th</sup> May 2021

Online: 10<sup>th</sup> May 2021

### KEY WORDS

higher education, transformation, quarantine, moodle, learning process

### ABSTRACT

*This article discusses the changes that have taken place in the organization of the educational process in higher education institutions during the quarantine period. It also provides information on the ongoing reforms and measures in the country and their implementation. In particular, the important attitudes towards the current process are mentioned.*

## O'ZBEKISTONDA KARANTINNING OLIY TA'LIM TIZIMIGA TA'SIRI

Alxieva Sabrina Sheronovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 1-May 2021

Ma'qullandi: 5-May 2021

Chop etildi: 10-May 2021

### KALIT SO'ZLAR

oliy ta'lim, transformatsiya, karantin, moodle, o'quv jarayoni.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada karantin davrida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish borasida yuz bergan o'zgarishlar haqida so'z boradi. Shuningdek, mazkur holat yuzasidan mamlakatda olib borilayotgan islohatlar va chora-tadbirlar va ularni tatbiq etishga doir ma'lumotlar keltiriladi. Asosan, mavjud jarayonga qarata bildirilgan muhim munosabatlar ham keltirib o'tilgan.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan COVID-19 virusi va bu kasallik yuzasidan joriy etilgan karantin holati ko'plab o'zgarishlarga sabab boldi. Bu holat oliy ta'lim tizimini ham chetlab o'tmadi. Aksincha, sezilarli darajada o'zgarishlar yuzaga keldi. O'zbekiston miqyosidagi oliy ta'lim muassasalari xususida so'z yuritishdan oldin jahon ta'lim tizimiga e'tibor qaratamiz.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan, YuNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), hamda Jahon banki ushbu pandemiyani o'rta maxsus va oliy ta'limning fors-major vaziyatlarga tayyorgarligini

tekshiruvdan o'tkazayotgan holat deb baholashmoqda. Buning sababi, jahondagi barcha ta'lim muassasalari yangi formatga o'tib, ommaviy tarzda masofali o'qitish tajribasini qo'llashga majbur bo'lishdi. O'z o'rnida, bu qator muammolarni keltirib chiqardi. Birinchidan, internet texnologiyalaridan foydalanish uchun o'qituvchi va talabalarda raqamli savodxonlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ikkinchidan, internet tezligining barcha hududlarda bir xilda yuqori emasligi, uchinchidan esa, ba'zi mamlakatlarda internet tarmog'iga ulanish



imkoniyatining kamligi yoki aholining aksariyat qismi uchun deyarli yo'qligi, to'rtinchidan, aksariyat ta'lim oluvchilarda masofaviy o'qish uchun texnik vositalarning (kompyuter, noutbuk, gadjetlarning) yetarlicha emasligi. Shubhasiz, bunday holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi, texnik nosozliklar va boshqa omillar o'quv jarayonida uzilishlarga olib keldi.

Lekin shu bilan birga, jahon ekspertlari pandemiya tufayli joriy qilingan qat'iy karantin qoidalari ta'lim, jumladan, oliy ta'lim uchun yangi imkoniyatlar yaratganini e'tirof etishmoqda. Xususan, Armanistonda karantin paytida masofaviy ta'lim olish imkonini beruvchi universitetlarning yagona iUniversity platformasi ishga tushirildi, Birlashgan Arab Amirliklari global tarmog'ida ta'lim olish va biznes yuritish uchun 5 ta: Google Hangouts Meet, Cisco Webex, Avaya Spaces, Blue Jeans va Slack nomli ilovalar uzluksiz ishlay boshladi. Kiprda ta'lim va fan vazirligi Pedagogika instituti orqali masofaviy ta'lim olib borish uchun o'qituvchilarni tezkor tayyorlash ishlarini tashkil qildi. Rossiya universitetlarida esa qo'shimcha reallik (AR – augmented reality) texnologiyasining qo'llanilishi (RF "Perviy kanal" dagi "Vremya" axborot ko'rsatuvi, 2020 yil 12 maydagi efir) ta'limda innovatsiya bo'ldi.

Mamlakatimiz miqyosida oliy ta'lim tizimida salbiy-ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dastlab, karantin e'lon qilinganda ko'pgina yaxshi-yomon munosabatlar shovshuv darajasida yurtimiz bo'ylab tarqaldi. Oliy ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar o'zgarishlar kiritildi. Masofadan o'qish uchun maxsus platforma ishlab chiqildi. Mavjud jarayon bir muncha ta'lim sifatiga ta'sir o'tkazdi. Lekin masofadan o'qish ma'lum darajada foydadan holi bo'lmadi. Yo'l uchun vaqt sarflamaslik, pul tejalishi va hokozolar.

## **Pandemiya sharoitida milliy oliy ta'lim tizimining transformatsiyasi**

Umuman olganda, O'zbekistonda aksariyat universitet va institutlar darslarni masofaviy shaklda o'tkazishga qisman tayyor edi. Oliy ta'lim muassasalari platformalarida Moodle tizimi shakllantirilib, unga barcha o'quv predmetlari bo'yicha elektron resurslar joylashtirilgan edi. Ammo, mazkur tizim bundan bir necha yil avval joriy qilingan bo'lishiga qaramay, unda ishlash amalda sustroq edi, shu bois, mamlakatimiz tarixida birinchi marta favqulodda tashkil etilayotgan masofaviy ta'limni joriy qilishda o'ziga yarasha muammolar va qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy edi. Internet tezligining nafaqat hududlarda, balki viloyatlar markazida ham pastligi, markazdan uzoq joylarda internetga ulanish imkoniyatining deyarli yo'qligi; o'quvchilarda texnik vositalarning yetishmasligi, aksariyat hollarda oilada bitta gadjet bo'lib, undan foydalanish uchun navbatga turishga to'g'ri keldi. Bu holat nafaqat O'zbekistonda, balki dunyo miqyosida ham ro'y berayotgani achinarlidir.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar yuzasidan ko'plab professor-o'qituvchilar o'z munosabatlarini bildirishgan. Quyida bir qancha fikrlarni keltirib o'tamiz:

Akbar Zamonov, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Milliy universitetining (O'zMU) tarix fakulteti dotsenti:

**Birinchidan**, mamlakat masofaviy va onlayn ta'limga o'tishga hali tayyor emas edi, jumladan, bu borada professor-o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar qilinmagan edi. Shuning uchun o'qitishning sifati, uni tashkil etish hamda hududlardagi aloqa tizimi bilan bog'liq muammo va qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shuningdek, videodarslarning vaqt me'yori 80 minutni tashkil qilmaydi (buning bir nechta sabablari



bor: internet tezligi nihoyatda past, talabalarning moddiy imkoniyati mavjud trafiklarga yetmaslik ehtimoli kattaligi va h.k.). Shu jihatdan, o'qituvchilar o'zlarining 80 daqiqalik ma'ruzasini metodik mahorat orqali qisqa vaqtga (20-30 daqiqa) keltirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim edi. Bunda tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar, talabalar tomonidan ularni topish va foydalanish uslublari, mavzuga oid asosiy tushuncha va tamoyillar, yakuniy xulosa va vazifalar berilishi lozim. Lekin bu maqsadga barcha ham erisha olmagan.

**Ikkinchidan,** biz talabalarni videodarslar orqali ta'lim olishini to'la nazorat qila olmadik. Shu nuqtai nazardan, telekanallar, internet saytlarda joylashtirilgan videodarslar mashg'ulotlari o'qituvchi, murabbiylar bilan bir qatorda ota-onalarga ham birdek mas'uliyat yuklaydi. Jumladan, farzandining internetdagi turli dasturlar orqali berib borilayotgan darslarni muntazam tomosha qilishlari uchun sharoit yaratish, doimiy nazorat qilish, mavzularni o'zlashtirishiga, vazifalarni bajarishga yordamlashish, shuningdek, farzandining o'qituvchisi bilan xabar almashishda internet orqali aloqani ta'minlab berishlari lozim.

Eng asosiy muammo, talabalarning mamlakatning turli hududlari – poytaxt, viloyat markazi, tuman markazidan eng chekka qishloqlarda istiqomat qilishi hamda ularda aloqa tizimining ham hududlariga qarab har xil bo'lishidir. Bu jarayonda faqat poytaxt, viloyat va tuman markazlarida istiqomat qiluvchi talabalarning imkoniyati bir oz yuqori bo'ldi. Bu videodarslar (xususan, Zoom platformasida) o'rtacha 100 nafar talabadan 8-13 tasining ishtirok etishiga olib keldi. Bu birinchidan, mamlakatdagi aloqa kompaniyalarining faoliyati qoniqarsizligini ko'rsatsa, ikkinchidan esa, talabalarda videodarslar bo'yicha

ko'nikmalarning hali yetarli darajada bo'lmaganligidadir.

Karantin davrida tashkil etilgan onlayn ta'lim ustozlar va talabalarning tabaqalanishiga, ya'ni shu jarayonga faol qatnashib, virtual ta'limning yutuqlaridan foydalanganlar hamda o'z mahoratini, malakasini oshirganlar va deyarli ishtiroksiz o'quv yilini yakunlayotgan guruhlarga ajratdi. Har holda, favqulodda o'tilgan onlayn ta'lim tahsil oluvchi va tahsil beruvchining mutaxassislik doirasida bilimlarini odatdagi tizimga qaraganda oshirmagan bo'lsa-da, ma'lum saboq va malakalarga ega bo'lishiga xizmat qildi.

Nilufar Salimsakova, Toshkent farmatsevtika instituti katta o'qituvchisi: Imkoniyatlar haqida aytadigan bo'lsam, bunda ham o'qituvchi, ham talaba, jamoaviy ishlashni o'rgandi. Biroq, bunday ishlash tartibining muayyan nuqsonlari borligi ma'lum bo'ldi. Xususan, talabalar o'qituvchi tomonidan belgilangan topshiriqlarga javoblarni ko'chirib, Telegram kanali orqali bir – birlariga jo'natish holatlari kuzatildi. Shuning uchun, fikrimcha, o'qituvchi har bir talabaga vazifani alohida, individual berishi kerak.

Bu tajriba bundan bir necha yil avval joriy qilingan Moodle tizimida masofaviy ishlashni o'rgatdi. Nazarimda, agar talabalarni dars berishning mazkur shakli bilan izlanishga motivatsiya qilinsa, ta'lim oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning bir nechtasini amalga oshirish mumkin bo'lardi. Men karantin davrida mamlakatimiz barcha o'quv yurtlarining masofaviy ta'lim shakliga o'tkazilgandan buyon, ushbu davr mobaynida erishilgan yutuqlar va kuzatilgan kamchiliklar borasida to'xtalmoqchiman.

**Botirjon Qosimov, Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi:** Avvalambor, yutuqlar haqida: bu borada erishilgan yutuqlar shundan iboratki, yoshidan



qat'iy nazar barcha professor-o'qituvchilarda ta'lim platformalari bilan ishlash, masofaviy ta'lim va uni olib borish sohasidagi bilim va ko'nikmalari shakllandi yoki rivojlandi. Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar esa tahlil etib borilmoqda. Masofaviy ta'lim ayni paytda kelajak uchun eksperiment vazifasini o'tamoqda, desak adashmaymiz. Masofaviy ta'limning yutuqlaridan biri, fikrimcha, talabalar bilan muloqotning xilma xilligidir. Bunda talaba aytmoqchi bo'lgan javobini matn, audio yoki video shakllarda bayon etish imkoniga ega bo'ladi. Bu esa auditoriya sharoitida omma oldida o'z fikrini ovoz orqali bayon eta olmaydigan yoki bundan tortinadigan talabalar uchun qulay shaklidir. Masofaviy ta'lim orqali ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar universitetga borish va kelish uchun sarflanadigan vaqtlari tejraladi. Tejalgan vaqt hisobiga boshqa manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish imkoniyati vujudga keladi.

Men kuzatgan kamchiliklarga kelsak, masofaviy ta'lim auditoriyada kechadigan jonli ta'limdan farqlangani tufayli ta'lim jarayonida muloqot qilish samaradorligi past darajada kechadi. Auditoriya sharoitida talabalarining yuz ifodasi orqali ularning dars mavzusini tushunib borayotganliklarini anglash oson kechadi. Masofaviy ta'limda esa bu qiyinroq kechadi.

Respublikada masofaviy ta'limning rivojlanish istiqbollari kelsak, masofaviy ta'lim ikki yo'nalishda, ya'ni real vaqt rejimiga asoslangan sinxron yoki real vaqt rejimiga asoslanmagan nosinxron tarzda kechishi mumkin. Ammo, ikki yo'nalish uchun ham Internet tezlik jihatidan yaxshi ishlashi kerak. Busiz masofaviy ta'limning istiqboli bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, hozirgi pandemiya sharoitidagi masofaviy ta'lim odatdagi masofaviy ta'limdan

farqlanadi. Pandemiya sharoitidagi masofaviy ta'lim favqulodda holatdagi masofaviy ta'limdir. Shu bois, hozirgi sharoitda ta'lim berish va ta'lim olishga moslashmagan Telegram singari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga majbur to'g'ri kelmoqda.

Kelajakda masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish uchun esa odatiy masofaviy ta'limni boshqarish tizimi, ya'ni Moodle kabi ta'lim platformalarini takomillashtirish, ularni qulay va yanada tushunarli funksiyalar bilan boyitish o'ta muhimdir. Buning uchun pedagog va axborot texnologiyalari mutaxassislarining yaqindan hamkorligi talab etiladi.

Yuqoridagi fikrlarga quyidagi mulohazalarimni qo'shimcha qilishni o'rinlidir. Haqiqatdan ham, ta'lim tizimining favqulodda masofaviy va onlayn shaklga o'tishi, butun dunyoda bo'lgani kabi, respublikamiz oliy ta'lim tizimini yangi sharoitlarga moslashishiga majbur qildi. Faoliyatni raqamli formatga o'tkazishda oliy ta'lim muassasalari asosan IT infratuzilma bilan bog'liq texnik qiyinchiliklarga duch keldi. Shu bilan birga, bu vaziyat boshqa bir muammo, joriy va oraliq nazorat ishlarida talabalar tomonidan bir-biridan ko'chirish muammosini keltirib chiqardi. Shu o'rinda plagiat muammosi jahonning deyarli barcha universitetlarida mavjudligi va uning oldini olish uchun maxsus dasturlardan foydalanilishi xorijiy professor – o'qituvchilar tomonidan ham ta'kidlanadi (WEBINAR ON: Academic Credit System: International Ceses, Konferensiya Zoom TashGUV) shular jumlasidandir. Oliy ta'lim jarayonidagi bu kabi o'zgarishlar talabalar o'zlashtirish koifitsentining sezilardi darajada pasayishiga olib keldi. Talabalarda yuzaki o'zlashtirishga moyillik kuchaydi.

Ummuman olganda, bilim olaman, o'z mutaxassisligim bo'yicha yetuk kadr bo'laman degan talabalar mavjud holat salbiy



ta'sir o'tkaza olmadi. Aksincha, mustaqil ishlashga qo'shimcha vaqt yuzaga keldi. Bu esa talabani yanada tezroq va

mukammalroq shug'ullanishiga zamin yaratdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Elektron kutubxona menejmenti moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua" Toshkent – 2016  
Tuzuvchi: TATU, "Axborot-kutubxona tizimlari" kafedrası professorı, t.f.d., M.A.Raxmatullayev  
TATU, "Axborot-kutubxona tizimlari" kafedrası katta o'qıtuvchısı S.R.Arakelov TATU,  
"Informatika asoslari" kafedrası assistentı O.O.Ishniyazov
2. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU  
ISSA, Ph.D in 2013, pages – 133. 3. Harris, M.H. History of Libraries in the Western World, 4th  
ed. (Scarecrow, 2011)
3. "Library management 101: A practical guide" by DIANE L.VELASQUEZ 2013 ISBN 978-0-  
8389-1148-8(paper) 978--0-8389-9502-0(pdf)
4. O.M. Mirtazayev "Epidemiologiyadan amaliy mashg'ulotlar uchun qo'llanma" Toshkent – 2009

### **Internet resurslar**

1. [http://en.wikipedia.org/wiki/Library\\_science](http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science)
2. <http://WWW.rocket-library.com/>)
3. "http://en.wikipedia.org/wiki/List\_of\_libraries
4. [Uzanalytics.com](http://Uzanalytics.com)